



Jizzax davlat
Pedagogika
Universiteti

TARIX FAKULTETI

HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
Журнал

№ 1

JOURNAL
2024



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

Bosh muharrir: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),
dotsent.tarix fakulteti dekani

Bosh muharrir Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,
o‘rinbosari: dotsent

Mas’ul kotib: Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Karimova. N.I

MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** _____ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. _____ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. _____ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz _____ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor _____ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. _____ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. _____ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. _____ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. _____ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. _____ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. _____ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. _____ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. _____ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. _____ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . _____ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o 'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. _____ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. _____ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. _____ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. _____ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. _____ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi _____ 100-105

DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO‘LISHI

J.E. Toshboyev

Jizzax DPU Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrası o‘qituvchisi

Abdug‘aniyev Jahongir

Jizzax DPU III bosqich talabasi

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolasida tarixiy manbalarga tayangan holda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etgan o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan bog‘liq ijtimoiy siyosiy jarayonlar va ularning transformatsion ko‘rinishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qabila ittifoqlari, Gerodot, Plutarx, Strabon, saklar, massagetlar, usunlar, qang‘, turk hoqonligi, oqsoqollar kengashi, harbiy demokratiya, jabg‘ular, transformatsiyalashuv, umumiy demokratik qonuniyatlar.

Аннотация: В данной статье автор, опираясь на исторические источники, проанализировал общественно-политические процессы и их преобразовательные аспекты, связанные с историей узбекской государственности, которые имели большое значение в становлении гражданского общества и правового демократического государства в Узбекистане.

Ключевые слова: племенные союзы, Геродот, Плутарх, Страбон, саки, массагеты, усунь, кан, Турецкое ханство, совет старейшин, военная демократия, джагуляры, преобразования, общедемократические законы.

Annotation: In this article, the author, relying on historical sources, analyzed the socio-political processes and their transformative aspects related to the history of Uzbek statehood, which were of great importance in the establishment of civil society and legal democratic state in Uzbekistan.

Key words: tribal alliances, Herodotus, Plutarch, Strabo, Sakas, massagets, usuns, kang, Turkish khanate, council of elders, military democracy, jaggular, transformation, general democratic laws.

Mamlakatimiz jahonda o‘z o‘rni va nufuziga ega bo‘lib borayotgan bir paytda, o‘zbek davlatchiligining paydo bo‘lishi va rivojlanish bo‘hqlari va qonuniyatlarini o‘rganish muhim masaladir. Davlatchilik tarixga oid turli tillarda bitilgan asarlarda qayd etilgan voqealar, yilnomalar, keltirilgan xujjatlar va olib borilgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar o‘zbek davlatchiligi an‘analari qadimiy tarix va uzoq taraqqiyot yo‘liga ega ekanligini ilmiy asoslaydi.

Sobiq ittifoq davrida davlat sinfiy jamiyatining mahsuli deb qaralganligi bois yurtimizda kechgan siyosiy jarayonlar bir tomonlama talqin qilinib, davlatchilik an‘analari tan olinmas edi. Shu sababli O‘rta Osiyo hududida ilk davlatlarning qachon paydo bo‘lishi masalasida noxolis yondoshuvlar mavjud bo‘lgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hududidagi ilk davlatchilik ildizlari voha davlatchiligi, shahar-davlatlar ko‘rinishida bo‘lib, ular miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo‘lganligi ilmiy asoslandi [1.3-10]. Bugungi kunda siyosiy jarayonlar faol kechayotgan bir paytda, o‘zbek davlatchiligi tarixida

bir necha bora nomoyon bo'lgan transformatsion jarayonlarni tadqiq qilish fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davr siyosiy tuzumi masalasi ular ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining qanday bo'lganligi bilan ham bog'liq. Turkiy xalqlar tomonidan tarixda juda ko'plab siyosiy tuzilmalarga asos solingan bo'lib, ularning (mavjud bo'lgan davri va egallagan hududlariga ko'ra) sanab adog'iga yetish qiyin. Ularning xo'jaligi va siyosiy tuzilmasi butun tarixi mobaynida asl xususiyati va mohiyatiga ko'ra deyarli o'zgarmadi. Shunga ko'ra, bir guruh olimlar turkiy xalqlar tuzgan davlatlar vaqtinchalik ahamiyat kasb etuvchi qabila ittifoqlari tarzida mavjud bo'lganligini ta'kidlashadi [2.25-26].

Yurtimizda kechgan siyosiy tizimdagi transformatsion jarayonlar masalasi qadimgi davr tarixchilarning asarlarida ham aks etgan. Antik davr muarrixlaridan Gerodot, skiflarning o'z podshosi borligi, Plutarx skif podsholaridan, Idanfirs, Ateya haqida, Strabon esa skiflar podshosi Sirm haqida ma'lumot berib, ularning oddiy kishilar ekanligini ta'kidlaydi [3.76]. O'rta Osiyo chorvador qabilalari siyosiy hayotida, har bir ko'chmanchi qabilaning tepasida o'z biyi turishi, bu qabila boshliqlari urush vaqtida harbiy qo'shinga qo'mondonlik qilishi, boshqa qabila boshliqlariga tinchlik yoki ittifoq to'g'risida elchilar yuborishi va hoqonlik taxtining avloddan-avlodga me'ros bo'lib o'tishi kabilar doimo kuzatiladi.

O'rta Osiyo xalqlari siyosiy hayotida mil. avv. VI asr o'rtalarida massagetlar boshqa qabilalar orasida yetakchilik rolini bajargan. Qadimgi saklar bo'yicha maxsus izlanishlar olib borgan B.A. Litvinskiy ko'pgina sak qabilalari, jumladan Pomir va Yaksart orti saklarining sinfiylik belgilari mavjud bo'lgan jamiyatda yashaganligini qayd etadi [4.194]. Massaget, sak va usunlarning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq bu ma'lumotlar, ularda qabilalar ittifoqi ko'rinishidagi davlatchilik bo'lganligi haqidagi fikrni mustahkamlaydi. Sak va usunlarning o'troq hayot tarzi bilan bog'liq yangi ma'lumotlar esa, ular xo'jaligining taraqqiyoti bilan birgalikda, ijtimoiy munosabatlarning ham rivoj topganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz hududida siyosiy jarayonlar faollashib borgach qabilalarning harbiy ittifoqlarga birlasha borishi kuchaygan. Bu jarayonni O'rta Osiyo hududlaridagi siyosiy tizim transformatsiyalashuvining ko'rinishlaridan biri deb hisoblash mumkin. Chunki bu davrda davlatchilik bilan bog'liq jarayonlarda miqdoriy o'zgarishlardan sifatli o'zgarishlarga o'tishni kuzatish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, hunlar jamiyati 24 urug' birlashmasidan tashkil topgan bo'lib, har urug'ni alohida boshqaruvchi oqsoqoli bo'lgan. Urug' oqsoqollari bir yilda uch marta yig'ilib qurultoy o'tkazganlar. Bu yig'inda muhim davlat ishlari hal qilingan. Oliy hukmdorni ham shu qurultoyda saylaganlar. Demak hun podsholari hokimiyatga saylov yo'li bilan kelgan [5.73]. Bunday tizimda qabilalar ittifoqi bilan birga bo'ysundirilgan qabilalar va ittifoqqa asos solgan, yetakchi qabilaning ham bo'lishi harakterli bo'lgan. Akademik K.Shoniyozov yunonlar bosqini arafasida "Toshkent vohasida mavjud bo'lgan sak (shak)lar qabila birligini sarkarda boshqargan bo'lib, bu, o'z navbatida, qabila va urug' boshliqlari oqsoqollaridan tashkil topgan kengash yig'inida saylangan iqtisodiy va siyosiy masalalar ham shu kengash yig'ilishida hal qilingan" [5.30-31], deb ta'kidlaydi.

To'ng'ich Xan sulolasi tarixida (mil. avv. 202-225 yillar) Qang'o'y podshosi mamlakatni boshqarishda o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi eslatiladi. Qang' davlatida Kengash muhim rol o'ynab, unda qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganlar va ularning fikri hal qiluvchi kuchga ega bo'lgan [5.31]. Ko'plab o'lkalarni ham o'z tasarrufida saqlagan podsho saroyi qoshida Kengash mavjud bo'lib, uning ichki va tashqi siyosati va boshqa davlat ishlaridagi muhim masalalar ana shu Kengash majlisida maslahat bilan hal qilingan. Aniqrog'i podsho hokimiyati maslahat majlisi bilan chegaralangan.

Turk xoqonligining boshqaruvida ikki xil tizim mavjud edi. Ular tobe o'lka va viloyatlarning ayrimlari boshqaruviga tayinlangan hukmdor xonadonga mansub vakillar hokimiyati va bo'ysundirilgan ba'zi o'lka va viloyatlarda mavjud mahalliy sulolalar saqlanib qolgan va ular xoqonlikka o'lpon to'lab turganlar. Hoqon esa maslahat majlisi bilan hamkorlikda ish yuritan. Bu boshqaruv usuli tarixda harbiy demokratiya prinsiplari asosida tashkil topgan davlat tizimi deb nom olgan [6.167]. Hoqonlik davrida davrida unga qarashli yerlar bir necha viloyatdan tashkil topib, ularni jabg'u (yabg'u)lar boshqargan. Jabg'ular odatda, hoqonlarga yaqin kishilardan tayinlangan. Viloyatlarni boshqarish esa mahalliy hokimliklar tasarrufida qoldirilib, ular hoqon tayinlagan tudanlar nazoratida markaziy hokimiyatga muntazam soliq (boj) to'lab turgan. Turk hoqonligi davrda O'zbekiston hududi ichki boshqaruviga ko'ra mustaqil bo'lgan bo'lsa, arablar bosqini bu boshqaruv tartiblariga zarba berdi va keyinchalik uning mustaqil mulk sifatidagi maqomini yo'qotdi.

Qadimgi turkiy afsonalarda aytilishicha davlatchilikning markazi, hokimiyatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlikning hukmron sulolasi asosiy bo'lib, u uchta kuch – osmon, yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltirilgan [7.196]. O'rta asrlarda ham harbiy boshqaruvchi xonning o'zi hisoblanib, qabila ittifoqlari bo'lmagan paytlari hoqon oqsoqollar kengashida saylangan. Saylangan kishi ro'honiyning tavsiyasi bilan shohlik unvonini qabul qilgan. Bunda hukmron unvonidan tashqari yangi davlat yoki ittifoq uchun nom ham qo'yilgan.

Demak, ajdodlarimizda hokimiyatini boshqarishda umumiy demokratik qonuniyatlar mavjud bo'lgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan, amalda bo'lgan harbiy qabila ittifoqi tarzidagi tuzum davr talabiga mos kelmay qolayotgan edi. U qabilalarni to'liq ximoya qilishga qodir emas edi. Bu paytdagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar ham jamiyat siyosiy munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Yurtimizda davlat vujudga kelishi oqil, jasur, ishlarida omadli bir qabila boshlig'ining o'z qabilasi va keyin boshqa, qo'shni elatlarni buysundira olgan sardorning yetishib chiqishi bilan bog'liqligi ko'p kuzatilgan. Yagona sardor boshchiligida bir nechta qabilani bo'ysundirgan bir uruqqa mansub yetakchilar boshqa qabilalarni ham turli xil usullar bilan ittifoqchilikka kiritishgan. Noqulay tabiiy sharoit, yoki turli xil yuqumli kasalliklar natijasida, chorva mollarining qirilib ketishi kabi holatlar, boshqa qabilalarning bunday ittifoqlarga ixtiyoriy kirishiga sabab bo'lgan. Bu birlashuv ko'pincha harbiy ittifoqlar shaklida bo'lib, uning yiqilishi esa o'zaro

nizolar, urug' va qabilalarning mustaqillik uchun intilishining tobora kuchayib borishiga sabab bo'lgan.

Shunday qilib, mil. avv. I ming yillik o'rtalarida paydo bo'lgan harbiy demokratiya ko'rinishidagi siyosiy tuzim o'rta asrlargacha amalda bo'lgan. Qadimiy an'analar asosida jamiyatni boshqarayotgan qabila-urug' oqsoqollari, tudun, tarxan va hoqonlar o'z qo'li ostidagi odamlar soni va yaylovlarini aniq bilishgan. Bunday yashash tarzi va ko'chmanchilar jamiyatidagi boshqaruv tartiblari ming yillar mobaynida deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolgan. Bu haqda Zahiriddin Bobur yozganidek, "Mo'g'ul dasturi bila tug' bog'ladilar... Mo'g'ul orasida Chingizxonning tuzuki xolog'acha Chingizxon yasab qo'yg'ondek o'qtir" [8.90].

O'rta asrlar ayniqsa, shayboniylar davriga kelib siyosiy tizimda transformatsion jarayon o'ziga xos tarzda kechgan. Bu davrda oldingi boshqaruv tizimidan farqli ravishda jamiyat siyosiy tuzilmasi xon yoki sulton, davlat arboblari, hokimiyat vakillari – noiblar, biy, oqsuyaklar – aslzoda urug' vakillariga mansub oilalar, choparlar, chokarlar, qora(suyak) – oddiy chorvadorlar-yilqichi va cho'ponlar, boylarning xo'jaligida xizmat qiluvchilar, aslzodalarning xizmatkorlari va qullardan iborat ijtimoiy-siyosiy tarkibdan iborat bo'lgan. Bundan tashqari alohida savdogarlar, ma'naviyat vakillari, mulla, baxshi kabi ijtimoiy gurux vakillari ham bo'lgan.

Vatanimiz hududida dashtdan kirib kelgan ko'chmanchi o'zbeklarning davlat boshliqlari xon bo'lishgan va ular bilan birgana kirib kelgan qabila boshliqlari, ruhoniylar, o'g'lonlar va sultonlar davlatni boshqarishda muhim rol o'ynagan. Xon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan biror bir tadbirni o'tkazmoqchi bo'lsa, albatta, ular bilan kengash qilgan. O'zbek xonlari davlatlarida yuqori davlat lavozimlari asosan ikki qabila (uyg'urlar va qushchilar) oqsoqollari qo'lida edi. Ko'chmanchi o'zbeklarning harbiy ishlarida asosan Chingizxon davridagi harbiy tuzum va tamoyillar ustivor edi. Chunonchi, o'zbek qo'shinlarining o'ng qanotini do'rman, tubai, chimboy va uyg'ur qabilalaridan iborat ko'ngillilar, chap qanotini esa burqutlar, qiyotlar, qo'ng'irotlar, naymanlar, qushchi, mang'itlar, ushunlar, iyjanlar tashkil qiladi. Boshqa qabila (tangut, utaji, ukaresh-nayman, jat, xatai, qarluq, kenagas, ichki, tuman-ming) larning ko'ngillilari qo'shinning markazida bo'lgan. Shunisi diqqatga sazovorki, ba'zi o'zbek sultonlari o'z qo'shinlarini bir tilda so'zlovchi kishilardan tashkil qilishga uringan. Masalan, 1509 yilning qishida Shayboniyxon qozoqlarning xoni Suyunchxo'jaxonga qarshi yurishida Toshkent hokimining 13 minglik kishisidan 10 mingi faqat tanlangan o'zbek otliqlaridan iborat bo'lgan. XV asrning ikkinchi yarmigacha qozoklar o'zbeklar bilan bir xalkni tashkil qilgan va ular orasida etnik va madaniy jihatdan farqlar kam bo'lgan [9.14-15].

Xullas, yurtimizda yashagan aholining o'ziga xos boshqaruv tartiblari bo'lib, bu ijtimoiy-siyosiy munosabatlar keyingi davrlarda yanada sayqal topgan, ya'ni transformatsion jarayonlar bu tizimda amal qilgan. Lekin bu jarayon siyosiy tizim ichida paydo bo'lgan va uning elementlarining aksariyat qismini o'zida saqlagan. Shu bois O'rta Osiyo xalqlari davlatchilik tarixida boshqaruv shakliga xos

an'analar muhim ahamiyat kasb etgan. Bu boshqaruv usuli tarixda harbiy demokratiya prinsiplari asosida tashkil topgan davlat tizimi deb nom olgan. Bu an'analar asosidagi boshqaruv tartiblari ulkan hududlarni yagona tutumga keltirib tarqoq ellarni birlashtirdi. Manfaatlarni mushtarakligini ta'minladi va keyinchalik mustaqil davlatchilik munosabatlarining shakllanishiga zamin hozirladi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии.- Самарканд.: 1993.;
2. Shaydullayev Sh. İlk davlatlarning arxeologik belgilari. O'zbekiston tarixi. 2002y. № 3.
3. Моисеев В.А. К вопросу о государстве у казахов накануне и в начальный период присоединения Казахстана и России // Восток, N4, 1995.
4. Кшибеков Д. Кочевое общество. - Алма-ата.: Наука, 1984.
5. Литвинский Б.А. Древние кочевники «Крыши мира». М., 1974.
6. Shoniyozov K.Sh. Qang' davlati va qang'lilar. - Toshkent.: Fan, 1996.
7. Asqarov A.A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - Toshkent.: Universitet, 2007.
8. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent.: Ma'rifat, 2009.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent.: 1990.
10. Elmurodov N. Zarafshon vohasi o'zbek xalqi etnik guruhlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand. : SamDChTI nashri, 2008.